УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржохон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	



SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI

B.Beknazarov

TDIUSF "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoatlashuv jarayonlarining qishloq xo'jaligi sektorida aholi bandligiga ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, bandlikni qo'llab-quvvatlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sanoatlashuv sharoitida mehnat resurslarining tarkibiy o'zgarishlari yoritilgan. O'zbekiston misolida olib borilgan empirik tahlillar asosida qishloq xo'jaligida bandlikning qisqarish omillari, investitsiyalar hajmi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoatlashuv mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, bandlik tuzilmasida sifat jihatdan yangi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va qishloq hududlarida bandlikni diversifikatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoatlashuv, qishloq xo'jaligi, milliy iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, yalpi ichki mahsulot, bandlik, eksport salohiyati, modernizatsiya, innovatsion texnologiyalar, investitsiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the impact of industrialization on employment in the agricultural sector. Agriculture plays a strategic role in the national economy by ensuring food security, contributing to gross domestic product, supporting employment, and enhancing export potential. The study examines the modernization of agriculture, the adoption of innovative technologies, and structural changes in labor resources under industrialization. Based on empirical analysis of Uzbekistan's experience, the research evaluates factors behind the decline in agricultural employment, investment dynamics, and the effectiveness of government support policies. The findings indicate that while industrialization increases labor productivity, it also leads to significant structural shifts in employment patterns. The paper proposes practical recommendations to promote economic stability and diversify employment opportunities in rural areas.

Key words: industrialization, agriculture, national economy, food security, gross domestic product, employment, export potential, modernization, innovative technologies, investment, economic stability.

Аннотация: В данной статье проведён комплексный анализ влияния процессов индустриализации на занятость населения в сельскохозяйственном секторе. Сельское хозяйство занимает стратегическое место в национальной экономике, обеспечивая продовольственную безопасность, формирование валового внутреннего продукта, занятость населения и рост экспортного потенциала. В исследовании рассмотрены вопросы модернизации сельского хозяйства, внедрения инновационных технологий и структурных изменений трудовых ресурсов в условиях индустриализации. На примере Республики Узбекистан проанализированы факторы сокращения занятости в сельском хозяйстве, объёмы инвестиций и эффективность государственной поддержки отрасли. Результаты исследования показывают, что индустриализация способствует росту производительности труда, одновременно трансформируя структуру занятости. В статье предложены практические рекомендации по обеспечению экономической устойчивости и диверсификации занятости в сельских регионах.

Ключевые слова: индустриализация, сельское хозяйство, национальная экономика, продовольственная безопасность, валовой внутренний продукт, занятость, экспортный потенциал, модернизация, инновационные технологии, инвестиции, экономическая устойчивость.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari fonida har bir mamlakat o'z iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ichki resurslardan samarali foydalanish va tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishga intilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun agrar sektor ya'ni qishloq xo'jaligi sohasi iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. Qishloq xo'jaligi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi,



balki millionlab odamlarning bandligini ta'minlab, iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston ham agrar salohiyatga ega mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakat hududining katta qismi qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lib, ushbu soha respublika yalpi ichki mahsulotining muhim qismini tashkil etadi [1].

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan qishloq xo'jaligini isloh qilish, uning samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomini kuchaytirish, yer-suv munosabatlarini tartibga solish, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish orqali agrar sohaga iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari tatbiq etilmoqda [2].

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi, ish o'rinlari yaratish, oziq-ovqat ta'minoti orqali; ikkinchidan, bilvosita boshqa tarmoqlar (qadoqlash, transport, qayta ishlash sanoati) bilan kooperatsiya orqali iqtisodiy zanjir hosil qilishi natijasida. Bu esa qishloq xo'jaligini nafaqat mustaqil sektor, balki butun iqtisodiy tizimning ajralmas bo'lagi sifatida talqin qilish imkonini beradi [3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda oziq-ovqat narxlarining o'sishi, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va pandemiya kabi global xavf-xatarlar fonida qishloq xo'jaligi faqat ichki ehtiyojni emas, balki xalqaro ehtiyojlarni ham qondirishga qaratilgan strategik tarmoqqa aylanmoqda. Shunday ekan, bu sohadagi har qanday islohot va yangiliklar mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4].

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligining iqtisodiyotga ta'siri har tomonlama o'rganiladi. Tadqiqot doirasida sohaning iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'rnini, ishlab chiqarish salohiyati, zamonaviy texnologiyalarning roli, bandlik darajasi va eksportga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston misolida qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida esa qishloq xo'jaligini iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatlashuv jarayonlari va uning qishloq xo'jaligi sektoridagi bandlikka ta'siri iqtisodiy nazariya va empirik tadqiqotlarda keng yoritilgan masalalardan biridir. Iqtisodiy rivojlanishning klassik yondashuvlari, xususan ikki sektorli model doirasida U. A. Lewis tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko'ra, sanoatlashuv jarayoni mehnat resurslarining past unumdor agrar sektordan yuqori unumdor sanoat va xizmatlar sektorlariga oqimini jadallashtiradi. Ushbu jarayon qishloq xo'jaligida bandlik ulushining qisqarishiga olib kelishi obyektiv va tabiiy holat sifatida baholanadi. Jahon banki (World Bank) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida bandlikning kamayishi asosan mexanizatsiya darajasining oshishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi va mehnat unumdorligining ortishi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi [1].

Xalqaro empirik tadqiqotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon banki tomonidan olib borilgan izlanishlar qishloq xo'jaligi sektorida bandlikning pasayishi ishlab chiqarish hajmining qisqarishini anglatmasligini ko'rsatadi. Aksincha, agrar mahsulot yetishtirish hajmi barqaror yoki oshib borayotgan sharoitda bandlik qisqarib, mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshishi mumkinligi ilmiy asoslangan. FAO va World Bank hisobotlarida raqamlashtirish, avtomatlashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalar va resurs tejankor usullarni joriy etish inson mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirayotgani, biroq bu jarayon umumiy iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilayotgani qayd etilgan [2].

O'zbekiston iqtisodiyotiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda ham sanoatlashuv va qishloq xo'jaligi bandligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan. Xususan, R. X. Ergashev, S. S. Fayziyeva va S. N. Xamrayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda agrar sektorda bandlik ulushining pasayishi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, shaharlashuv jarayonlarining jadallashuvi, xizmatlar sektorining kengayishi hamda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan texnologik yangilanishlar bilan izohlanadi. Mualliflar qishloq xo'jaligida bandlikning kamayishini faqat salbiy holat sifatida emas, balki iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan obyektiv jarayon sifatida baholaydilar. Agrar ishlab chiqarishda mexanizatsiya darajasining oshishi, tomchilatib sug'orish, raqamli monitoring va zamonaviy agrotexnik vositalardan foydalanish ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qisqartirgan bo'lsa-da, mehnat unumdorligi va mahsulot sifati oshishiga xizmat qilgani ilmiy adabiyotlarda asoslab berilgan [3].

Shuningdek, mahalliy va xalqaro tadqiqotlarda qishloq xo'jaligida bandlikning qisqarishi bilan bir vaqtda sanoat, qayta ishlash va xizmatlar sektorlarida yangi ish o'rinlari yaratilayotgani, bu esa umumiy bandlik darajasining barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani qayd etiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligida bandlikning kamayishi sanoatlashuvning muqarrar natijasi bo'lib, ushbu jarayon samarali davlat siyosati, mehnat bozorini moslashtirish mexanizmlari va hududiy rivojlanish strategiyalari bilan qo'llab-quvvatlangan taqdirda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Dastlab, statistik tahlil usullari orqali O'zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, BMTning FAO tashkiloti hamda boshqa ochiq manbalardagi ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu ma'lumotlar asosida so'nggi yillardagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi, eksport salohiyati va investitsiya hajmlari o'rganildi [6].

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan foydalanib, O'zbekiston agrar sektori boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan Qozog'iston, Ukraina va Hindiston bilan solishtirildi. Shuningdek, SWOT tahlil yordamida sohaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlashtirildi. Sifat tahlili doirasida esa sohaga oid hukumat qarorlari, strategik dasturlar, Prezident farmonlari va ilmiy maqolalar tahlil qilindi [7].

Ushbu yondashuvlar orqali qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishga qanday yo'llar bilan ta'sir qilayotgani, ayniqsa bandlik, eksport, oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy rivojlanishdagi roli aniqlandi. Tadqiqot davomida sohaning zamonaviy texnologiyalarga muhtojligi, moliyaviy vositalar va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'rganildi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi misolida olib borilgan tahlillar qishloq xo'jaligi sohasining iqtisodiyotdagi hal qiluvchi o'rnini yaqqol ko'rsatdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 25% dan ortig'ini tashkil qilgan. Mamlakat aholisining qariyb 27% i aynan shu sohada mehnat qilayotgani esa bu tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan naqadar muhimligini anglatadi. Bundan tashqari, agrar mahsulotlar eksporti umumiy eksport hajmining 15–20% ini tashkil qilib, iqtisodiyotga valyuta oqimini ta'minlamoqda [9].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligida meva-sabzavot, don, paxta, uzum yetishtirish salohiyati yuqori bo'lib, bu mahsulotlar eksportbop hisoblanadi. Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatining rivojlanmaganligi, logistika muammolari va suv resurslarining yetishmovchiligi kabi omillar umumiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [10].

2000–2023 yillar oralig'ida ko'rsatkichlarning foizlarda pasayib borishi aks ettirilgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2000-yilda (26%) bo'lgan, eng past ko'rsatkich esa 2023-yilda (14%) qayd etilgan (1-jadval).

Jadval-1. Qishloq xo'jaligida band aholining ulushi (2000-2023)

Yil	Foiz (%)
2000	26
2005	21
2010	18
2015	16
2020	15
2023	14


Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari agrar ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi va cho'l hududlarida suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi tufayli agrar faoliyat cheklangan [11].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunning yangilanishi, subsidiyalar berilishi, yerlarni raqamlashtirish va agrosug'orish tizimining takomillashtirilishi ijobiy natijalar bermoqda. 2023-yilda agrotexnika uskunalariga ajratilgan subsidiyalar hajmi 2 baravarga oshgan, bu esa texnologik yangilanish sur'atlarini kuchaytirgan [12].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 yilda 31 foizni tashkil etgan qishloq xo'jaligi bandligi 2023 yilga kelib 14 foizgacha pasaygan bo'lib, bu jarayonning barqaror va tizimli ekanini ko'rsatadi. Bu pasayishning asosiy omillari – mexanizatsiya darajasining ortishi, sanoat tarmoqlarida yangi ish o'rinlarining ko'payishi, xizmat ko'rsatish sektori salmog'ining oshishi va ichki mehnat migratsiyasining faollashuvi bilan bog'liq (1-Rasm). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar masalan, tomchilatib sug'orish, dronlar yordamida kuzatuv va tahlil qilish, raqamli monitoring qo'llanilgan xo'jaliklarda hosildorlik 25–30% ga oshgan. Bu esa mahsuldorlik bilan birga iqtisodiy daromadni ham sezilarli ravishda ko'paytirgan [13]. Qishloq xo'jaligi sohasiga xorijiy investitsiyalar ham kirib kelmoqda. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Niderlandiya kabi davlatlar O'zbekistondagi issiqxona va chorvachilik loyihalariga sarmoya kiritmoqda. Bu esa mahalliy



ishlab chiqaruvchilar uchun texnologik hamkorlik va eksport imkoniyatlarini oshirmoqda. Biroq muammolar ham mavjud: yer resurslarining chegaralanganligi, suv tanqisligi, qishloq infratuzilmasining orqada qolganligi, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi to'siqlar va kadrlar salohiyatining pastligi. Shu sababli, sohada kompleks yondashuv asosida strategik rejalashtirish, ilm-fanga asoslangan innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish zarur [14].



Rasm-1. 1991-2030 yillar bo'yicha ARIMA prognozi

Umuman olganda, tahlillar qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishdagi salohiyatini to'liq ochib berdi. Samarali siyosat, ilg'or texnologiyalar va xalqaro hamkorlik vositasida bu sohani iqtisodiyotning drayveriga aylantirish mumkin [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi har bir davlat iqtisodiy tizimida asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar resurslarga boy, qishloq aholisi soni yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun bu sohaning iqtisodiy ahamiyati beqiyosdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qishloq xo'jaligi nafaqat yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi, balki aholini ish bilan ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash va eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mavjud holatni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, irrigatsiya tizimini isloh qilish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va eksport infratuzilmasini yaxshilash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Davlat tomonidan fermerlar va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari subsidiyalar, soliq imtiyozlari, kreditlar va ta'lim dasturlari sohani taraqqiyot yo'liga olib chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari asosida yangi texnologiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Qishloq infratuzilmasini, ayniqsa transport, saqlash, qadoqlash va marketing tizimini rivojlantirish orqali mahsulot qiymat zanjirini to'liq shakllantirish zarur.

Yana bir muhim masala ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Suv resurslarining chegaralanganligi, iqlim o'zgarishi, tuproq degradatsiyasi kabi omillar uzoq muddatli istiqbolda qishloq xo'jaligi samaradorligiga tahdid soladi. Shu sababli, ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etish, agrosanoat kompleksini ekologik jihatdan barqaror yuritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi iqtisodiy o'sish va barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Ushbu sohada chuqur islohotlar, innovatsion yondashuvlar va samarali boshqaruv bo'lishi evaziga O'zbekiston agrar sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanishi mumkin. Mazkur tadqiqot asosida ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalar qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va iqtisodiy salohiyatni to'liq ishga solish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat," Stat.uz, 2024.
2. The World Bank, "Agriculture and rural development – Uzbekistan data," World Bank Open Data, 2023.
3. S. S. Gulyamov, "O'zbekistonda qishloq xo'jaligi modernizatsiyasi va iqtisodiy o'sish," Tashkent State University of Economics Journal, vol. 3, no. 2, pp. 45–58, 2021.
4. Q. Xudoberganov, "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish," Universitet tadqiqot bazasi, pp. 355–360, 2024.
5. R. X. Ergashev, S. S. Fayziyeva, and S. N. Xamrayeva, Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.
6. M. R. Musurmonkulova, "Qishloq xo'jaligini yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish," Новости образования: исследование в XXI веке, vol. 3, no. 33, pp. 546–550, 2025.
7. B. R. T. U. Abdusamatovich, "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish," Лучшие интеллектуальные исследования, vol. 37, no. 3, pp. 234–243, 2025.
8. A. A. Maxkamovich and N. X. Avazbek o'g'li, "Qishloq xo'jaligi tarmog'ini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali raqamlashtirish va innovatsiyalarni jadallashtirish istiqbollari," Qo'qon Universiteti Xabarnomasi, no. 9, pp. 26–30, 2023.
9. A. N. Bekmurod o'g'li and I. G. G'ayratovich, "Qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari," MASTERS, vol. 3, no. 30, pp. 17–24, 2025.
10. Q. Xudoberganov, "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish," University Research Base, pp. 355–360, 2024.
11. T. Y. A. G'ofurovich and A. S. Abduqaxxorovich, "Qishloq xo'jaligi kooperativlari ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida," Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, vol. 4, no. 03, pp. 1–12, 2024.
12. T. A. Tohir o'g'li, "O'zbekiston qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar: qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning xorijiy tajribalarini O'zbekistonda joriy qilish," Tadqiqotlar, vol. 60, no. 4, pp. 29–38, 2025.
13. B. B. Nurquvvat o'g'li, "Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni," Fan va Tadqiqot Samaralari, vol. 2, no. 4, pp. 118–120, 2025.
14. B. A. Ahmatov, "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tizimida dehqon xo'jaligi tushunchasi va rivojlanish tamoyillari," Ijodkor O'qituvchi, vol. 5, no. 51, pp. 37–40, 2025.
15. A. Nurullaev, "O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni va sug'urtalashning dolzarbligi," Akademik tadqiqotlar zamonaviy fanida, vol. 4, no. 27, pp. 105–108, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>